

TARMOQ MALAKA RAMKASI

Reyestr raqami:

QR kod

1. Umumiy talablar va asosiy tushunchalar

1. Ushbu Tarmoq malaka ramkasi O'zbekiston Respublikasi Milliy malaka ramkasi va Mashg'ulotlar milliy klassifikatoriga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, o'rmon xo'jaligi sohasi bo'yicha sakkizta malaka darajasini Ekologiya, o'rmon xo'jaligi, gidrometeorologiya sohasida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoqda qo'llaniladigan bilim, ko'nikma, mas'uliyat va mustaqillik xususiyatiga qarab tasniflaydi.

Tarmoq malaka ramkasi o'rmon xo'jaligi sohasida malaka darajalarining yagona shkalasini belgilaydi, malakalarning qiyoslanishini ta'minlaydi, kasbiy standartlar va mutaxassislar malakasini muvofiqligini tasdiqlash hamda ularning malakasini tan olish tizimi uchun asos hisoblanadi.

O'rmon xo'jaligi sohasi bo'yicha Tarmoq malaka ramkasining asosiy maqsadi O'rmon xo'jaligi sohasida malaka darajalarining tizimlashtirilgan tavsifini, iqtisodiyotning istiqbollari va ustuvor yo'nalishlarini hamda tarmoqning strategik rivojlanishini hisobga olgan holda Milliy malaka ramkasi asosida mavjud malakalarga qo'yilgan talablarni shakllantirishdan, shuningdek, tarmoqlararo kompetensiyalar va turdosh mashg'ulotlar (malakalar) turlarini ko'rsatgan holda kasblar va lavozimlarni malaka darajalari bo'yicha xaritalashdan iborat.

Tarmoq malaka ramkasining vazifasi keyinchalik kasbiy standartlarni ishlab chiqish uchun O'rmon xo'jaligi sohasida joriy va istiqbolli texnologiyalarni hisobga olgan holda ishchilarning funksional xatti-harakatlari, ko'nikmalari va bilimlariga qo'yiladigan talablarni aniqlashdan iborat.

2. Ushbu Tarmoq malaka ramkasida quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:
bilim – kasbiy faoliyat doirasida mehnat vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lgan egallangan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

guruh – iqtisodiy faoliyatning keng sohasini bildiradi. Har bir guruh faoliyatning yirik segmentlarini birlashtiradi;

informal ta'lim – maqsadli yoki rejalashtirilgan, biroq institutsionallashtirilmagan ta'lim bo'lib, u oilada, ish joyida va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatlarini o'z ichiga oladi;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiluvchi muayyan mehnat vazifalari va funksiyalarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kasbiy standart – norasmiy va informal ta’limni inobatga olgan holda, muayyan kasbiy faoliyat sohasida bilim, ko’nikma, mas’uliyat va mustaqillik, malaka darajasi, mehnat mazmuni, sifati va sharoitlariga qo’yiladigan talablarni belgilovchi rasmiy hujjat;

kasbiy faoliyat sohasi – ilmiy, ijtimoiy, iqtisodiy sohalarda, ishlab chiqarishda namoyon bo’ladigan kasbiy faoliyat obyektlarining majmuasi;

kasbiy faoliyat turi – xususiyati, natijalari va mehnat sharoitlari bir-biriga yaqin bo’lgan mehnat funksiyalarining majmuasi. Kasbiy faoliyat turi kasbiy standartlarni ishlab chiqishda qo’llanilib, aniq mehnat funksiyalari hamda malaka talablarini tavsiflash uchun asos bo’lib xizmat qiladi;

kichik sinf – iqtisodiy faoliyatni eng aniqlik darajasida tasniflaydi. U sinf ichidagi faoliyatning aniq turlarini tavsiflaydi;

kompetensiya – bilim, malaka va shaxsiy sifatlarini ma’lum sohada muvaffaqiyatli faoliyat uchun qo’llay olish;

ko’nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va (yoki) aqliy jihatdan bajarish;

malaka – tegishli hujjat bilan tasdiqlanuvchi bilim, ko’nikma va kompetensiyalar majmuasi bo’lib, shaxsning muayyan kasbiy faoliyat turini bajarishga tayyorligini aks ettiradi;

malaka darajasi – xodimlarning bilim, ko’nikma va kompetensiyalarining murakkablik, standart bo’lmagan mehnat harakatlari va mas’uliyat parametrlariga muvofiqlik darajasi;

mas’uliyat va mustaqillik – xodimning umumiy kompetensiyasini belgilab quyidagilar bilan ifodalanadi:

rahbarlik ostidagi faoliyat;

mustaqil ijro intizomi;

rahbarlik faoliyati;

Mashg’ulotlar milliy klassifikatori – O’zbekiston Respublikasi hududida qo’llaniladigan mashg’ulotlar (kasblar/lavozimlar) nomlarini aks ettiruvchi va ularni bajariladigan ishning turiga muvofiq malaka darajasi va ixtisoslashuvi bo’yicha tasniflovchi mashg’ulotlar (kasblar/lavozimlar) ning tizimlashtirilgan ro’yxati;

Milliy malaka tizimi – kasbiy malakalar bo’yicha mehnat bozori talabi hamda ta’lim tizimi (jumladan, norasmiy va informal ta’lim) taklifini muvofiqlashtiruvchi hamda tartibga soluvchi huquqiy va institutsional vositalar va mexanizmlar majmui;

Milliy malaka ramkasi – kasbiy faoliyat uchun zarur bo’lgan barcha malakalarni tavsiflovchi, mamlakatda kasbiy malakalarni tasniflash va tan olishning strategik muhim, konseptual vositasi hisoblanuvchi, malaka darajalari yig’indisidan iborat tashkiliy tuzilma;

norasmiy ta’lim – tashkillashtirilgan, maqsadli va rejalashtirilgan ta’lim bo’lib, shaxs yoki ta’lim xizmatlarini ko’rsatuvchi tashkilot tomonidan amalga oshiriladi va rasmiy ta’limni to’ldiruvchi yoki uning alternativasi bo’lishi mumkin;

rasmiy ta’lim – davlat ta’lim muassasalari va davlat tomonidan tan olingan

nodavlat ta'lim muassasalarida amalga oshiriladigan, tashkillashtirilgan, maqsadli va rejalashtirilgan ta'lim jarayoni;

sinf – guruh ichida iqtisodiy faoliyatning o'rtacha darajada aniqlangan turlarini ifodalaydi. U guruh ichidagi ancha tor doiradagi faoliyatni ifodalash uchun ishlatiladi;

Tarmoq malaka ramkasi – Milliy malaka ramkasi, mashg'ulotlar, lavozimlar va kasblar klassifikatorlari asosida ishlab chiqiladigan hamda tegishli sohadagi kasblarga qo'yiladigan malaka talablarini bajariladigan ishning murakkabligi, tarmoqda qo'llaniladigan bilim, ko'nikma va kompetensiyalar xususiyatiga qarab darajalarga ajratuvchi tasniflagich.

O'rmon xo'jaligi sohasiga oid tayanch atama va tushunchalar:

Ekoturizm – tabiatni muhofaza qilish prinsiplariga rioya qilgan holda, tabiiy hududlarga sayohat qilish va tabiat bilan do'stona munosabatda bo'lishdir. Bu turizm turi atrof-muhitni saqlash, mahalliy madaniyatni qo'llab-quvvatlash va barqaror rivojlanishga xizmat qiladi;

O'rmonchilik – o'rmonlarni saqlash, tiklash, rivojlantirish va ulardan barqaror foydalanishni ta'minlash bilan shug'ullanuvchi soha. Bu tabiiy resurslarni muhofaza qilish va iqtisodiy maqsadlarda o'rmon mahsulotlarini yetishtirishni o'z ichiga oladi;

O'rmon daraxtlari – o'rmon hududlarida o'sadigan, baland va yirik shox-shabbaga ega bo'lgan daraxtlar. Ular o'rmonning asosiy qismini tashkil etib, tabiat muvozanatini saqlashda, kislorod hosil qilishda va yashash muhiti yaratishda muhim rol o'ynaydi;

O'rmon mahsulotlari – o'rmondan olinadigan daraxt yog'ochi, meva, yong'oq, o'tlar, chodirli materiallar va boshqa tabiiy resurslardir. Ular iqtisodiyotda, sanoatda va kundalik hayotda keng qo'llaniladi;

Yog'och tayyorlash – o'rmondan kesilgan daraxtlarni kerakli o'lcham va shaklga keltirib, qurilish, mebel yasash va boshqa maqsadlarda foydalanishga tayyorlash jarayonidir. Bu jarayon kesish, qirqish, quritish va ishlov berishni o'z ichiga oladi;

Yovvoyi hayvonlar – inson tomonidan boqilmaydigan, erkin tabiatda yashaydigan va tabiiy muhitda hayot kechiradigan hayvonlardir. Ular o'rmon, dasht, cho'l kabi hududlarda uchraydi va ekotizimning muhim qismidir.

Mazkur tarmoq malaka ramkasini ishlab chiqishga asos bo'lgan qonunlar, qarorlar, normativ hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 9-dekabrda "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida" 754-XII-son Qonuni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-maydagi "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-81-son Farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 23-noyabrda "Respublikada yashillik darajasini yanada oshirish, "Yashil makon" umummilliy loyihasini izchil amalga oshirish orqali ekologik barqarorlikni ta'minlash chora-

tadbirlari to'g'risida"gi PF-199-son Farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-noyabrdagi "Ekologiya va turizm sohalarida aholi talablariga tezkor javob bera oladigan boshqaruv tizimini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-217-son Farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 11-may kuni qabul qilingan "O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-2966 Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 21-yanvardagi "O'rmon xo'jaligi sohasida ilm-fanni rivojlantirish va ilmiy-tadqiqot ishlarini rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4960-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-maydagi "Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-171-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-345-son Qarori.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-noyabrdagi O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida PQ-343-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 17-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini tartibga solishga qaratilgan ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 369-son qarori.

Asosiy qisqartmalar:

MMR – Milliy malakalar ramkasi;

MMK – Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori;

TMR – Tarmoq malaka ramkasi.

2. Tarmoq malaka ramkasining pasporti

Soha (tarmoq) ning tavsifi:

O'zbekiston o'rmon xo'jaligi-maxsus tabiatni saqlovchi va uni boyliklarini ko'paytiruvchi soha. Uning asosiy vazifasi etib o'rmonlarni takror ko'paytirish, saqlash va o'rmon fondi boyliklaridan oqilona foydalanish, respublika ehtiyojini o'rmon va o'rmon mahsulotlari bilan ta'minlash, o'rmonlarni ekologik, atrof muhitni muhofaza qilish, suvni saqlash, himoya qilish, sanitar gigenik va rekreatsion faoliyatlarini kuchaytirish hisoblanadi.

O'rmon xo'jaligi sohasida o'z faoliyatida boshqa tashkilotlar va idoralar bilan uzviy bog'langan bo'lib, ularni iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo'shadi.

O'rmonlarni qo'riqlash, muhofaza etish, foydalanish va takroriy ko'paytirish davlat boshqaruvi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O'zbekiston Respublikasi O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi tomonidan amalga oshiriladi. O'rmondan foydalanish bo'yicha asosiy siyosatni olib borish O'rmon xo'jaligi davlat

qo'mitasi va uning joylardagi organlariga o'rmon xo'jaligini muvofiqlashtirish va boshqarish yuklatilgan.

O'rmon xo'jaligi sohasidagi tarmoq malaka ramkasi quyidagi iqtisodiy faoliyat turlari uchun ishlab chiqilgan:

Seksiya nomi:

A seksiyasi – Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi;

N seksiyasi – Professional, ilmiy va texnik faoliyat;

P seksiyasi – Davlat boshqaruvi va mudofaa; majburiy ijtimoiy ta'minot;

S seksiyasi – San'at, sport va dam olish.

O'zbekiston Respublikasida O'rmon xo'jaligi sohasidagi TMR Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi (IFUT-2.1)ga muvofiq quyidagi iqtisodiy faoliyat turlarini qamrab oladi:

T/r	Seksiya	Bo'lim	Guruh	Sinf	Kichik sinf
1	A seksiyasi – Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	02 O'rmonchilik va yog'och tayyorlash	02.1 O'rmonchilik va boshqa o'rmon xo'jaligi faoliyati	02.10 O'rmonchilik va boshqa o'rmon xo'jaligi faoliyati	02.10.0 O'rmonchilik va boshqa o'rmon xo'jaligi faoliyati
			02.2 Yog'och tayyorlash	02.20 Yog'och tayyorlash	02.20.0 Yog'och tayyorlash
			02.3 Yog'ochdan tashqari o'rmon mahsulotlarini yig'ish	02.30 Yog'ochdan tashqari o'rmon mahsulotlarini yig'ish	02.30.0 Yog'ochdan tashqari o'rmon mahsulotlarini yig'ish
			02.4 O'rmonchilik sohasidagi texnik xizmatlar	02.40 O'rmonchilik sohasidagi texnik xizmatlar	02.40.0 O'rmonchilik sohasidagi texnik xizmatlar
2	N seksiyasi – Professional, ilmiy va texnik faoliyat	71 Me'morchilik, muxandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi faoliyat	71.2 Texnik sinovlar va tahlillar	71.20 Texnik sinovlar va tahlillar	71.20.0 Texnik sinovlar va tahlillar

3	P seksiyasi – Davlat boshqaruvi va mudofaa; majburiy ijtimoiy ta’minot	84 Davlat boshqaruvi va mudofaa; majburiy ijtimoiy ta’minot	84.1 Umumiy tushdagi davlat boshqaruvi hamda iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik boshqaruv	84.11 Umumiy tushdagi davlat boshqaruvi	84.11.1 Davlat hokimiyati va boshqaruvining respublika idoralari faoliyati
					84.11.2 Davlat hokimiyati va boshqaruvining hududiy idoralari faoliyati
				84.12 Sog’liqni saqlash, ta’lim, madaniyat va boshqa ijtimoiy xizmatlarni tartibga solish	84.12.0 Sog’liqni saqlash, ta’lim, madaniyat va boshqa ijtimoiy xizmatlarni tartibga solish
4	S seksiyasi – San’at, sport va dam olish	91 Kutubxonalar, arxivlar, muzeylar va boshqa madaniyat obyektlari	91.4 Botanika va hayvonot bog’lari hamda qo’riqxonalar faoliyati	91.41 Botanika bog’lari va hayvonot bog’lari faoliyati	91.41.0 Botanika bog’lari va hayvonot bog’lari faoliyati
				91.42 Qo’riqxonalar faoliyati	91.42.0 Qo’riqxonalar faoliyat

TMR quyidagi kasbiy faoliyat turlari va mashg’ulotlar guruhlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan:

T/r	Mashg’ulot guruhi kodi	Mashg’ulot guruhi nomi
1	11200	Markaziy tashkilotlar, muassasalar va korxonalarning rahbarlari
2	13112	O’rmon xo’jaligi boshqaruvi sohasidagi bo’linmalar rahbarlari
3	21325	O’rmon xo’jaligi sohasidagi professional-mutaxassislar
4	31430	O’rmon xo’jaligida sohasida mutaxassis-texniklar
5	51640	Uy hayvonlari va boshqa hayvonlarni parvarish qilish bo’yicha yakka tartibda xizmat ko’rsatuvchi xodimlar
6	62101	O’rmon kesish ishlari bo’yicha ishchilar
7	62109	Boshqa mashg’ulotlar guruhlariga kiritilmagan o’rmonchilar va turdosh soha vakillari, b.g.k.
8	92150	O’rmon xo’jaligida band bo’lgan malakasiz ishchilar

3. Tarmoq tahlili

O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi o'z ish faoliyatini 2017-yil 11-may kuni qabul qilingan "O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-2966 Prezident qarori va Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari asosida amalga oshiradi.

O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasiga o'rmon xo'jaligini xolati va istiqbolda rivojlantirish, sohada ilmiy texnik progress, o'rmonlardan oqilona foydalanish, ko'paytirish, qo'riqlash va muhofaza etishni tashkil etish, ovchilik xo'jaligi, qo'riqxonalar ishi va tabiiy xalq bog'larini yuritishni boshqarish, o'rmonlarni ekologik va boshqa foydali xususiyatlarini kuchaytirishni amalga oshirish mas'uliyatlari yuklatilgan.

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va turizm sohalarida vazifalarni tezkor hamda yangi yondashuv asosida sifatli tashkil etish, shuningdek, mazkur yo'nalishdagi davlat boshqaruvi va nazorati tizimini takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-noyabrda PF-217-son Farmoni va PQ-343-son Qarori tasdiqlandi.

Mazkur normativ-hujjatlarga muvofiq o'rmon xo'jaligi sohasida quyidagi asosiy vazifalar belgilandi:

- o'rmonlarni muhofaza qilish, qo'riqlash, qayta tiklash, takror ko'paytirish, mahsuldorligini oshirish va ulardan foydalanish, "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida yashil hududlarni yaratish;

- hayvonot va o'simlik dunyosidan, muhofaza etiladigan tabiiy hududlardan oqilona foydalanish, ularni qayta tiklash va muhofaza qilish;

- o'rmon xo'jaligi sohasida yagona davlat siyosatining ustuvor va strategik yo'nalishlarini shakllantirish va amalga oshirish, o'rmon resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlash;

- o'rmon barpo etish orqali ularning maydonlarini kengaytirish, qayta tiklash, muhofaza qilish, ulardan foydalanish faoliyatini rivojlantirish va samaradorligini oshirish sohasida davlat boshqaruvini amalga oshirish;

- o'rmon to'g'risidagi normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

- o'rmon fondi yerlarida biotexnik tadbirlarni amalga oshirish;

- barcha o'rmonlarda o'rmon tuzishning yagona tizimini belgilash;

- o'rmonlarni qayta tiklash va ihota o'rmonlarni ko'paytirishga doir chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish, tog' yonbag'irlari, jarliklar va tashlandiq yerlarda eroziyaga qarshi daraxtzorlar barpo etish ishlarining bajarilishini tashkil etish;

- cho'llanishning oldini olish, o'rmonlarni qayta tiklash va ihota o'rmonlarini ko'paytirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- cho'llanish va qurg'oqchilikka qarshi kurashish bo'yicha dastur va loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etadigan vazirliklar, idoralar va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari ishlarini muvofiqlashtirish;

manzarali o'simliklar ko'chatlari va urug'larini sertifikatlash va standartlashtirishning yagona tizimini ishlab chiqish hamda joriy qilishni tashkil etish;

o'rmon fondini, fauna va florasini o'rganish hamda ularning qat'iy hisobini yuritish, o'rmon xo'jaligini yuritish amaliyotiga fan yutuqlari va ilg'or tajribani joriy etish;

o'rmon xo'jaliklarida bir-biriga bog'liq bo'lgan xo'jalik faoliyatini kengaytirish va rivojlantirish, ko'chat yetishtirish, dorivor o'simliklarni to'plash, asalarichilik, baliqchilik, chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish hamda ularni chuqur qayta ishlash, xalq iste'moli tovarlari ishlab chiqarishni tashkil etish;

o'rmonlarni yong'inlardan, zararkunanda va kasalliklardan, noqonuniy daraxt kesishdan va boshqa o'rmon to'g'risidagi qonun hujjatlarining buzilishlaridan muhofaza qilish;

"Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida yashil hududlarni yaratish bo'yicha faoliyatni muvofiqlashtirish va amalga oshirish.

Sohadagi yirik korxona va tashkilotlar:

O'rmon va yashil hududlarni ko'paytirish, cho'llanishga qarshi kurashish agentligi;

Ovchilikni rivojlantirish departamenti davlat muassasasi;

Binolardan foydalanish va qurilish-ta'mirlash ishlari direksiyasi davlat muassasasi;

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar departamenti davlat muassasasi;

Yashilloyiha" loyihalash instituti davlat muassasasi.

Tarmoqda milliy malakalar tizimini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan hamda rejalashtirilgan ishlar:

O'rmon xo'jaligi sohasida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, xorijiy stajirovkalarni tizimli tashkil etish, innovatsion ishlanmalarni ishlab chiqarishga keng joriy etish maqsadida O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi markaziy apparati tuzilmasida 4 ta shtat birligidan iborat Ilmiy tashkilotlar faoliyati va innovatsiyalarni joriy etishni muvofiqlashtirish boshqarmasi tashkil etilgan.

O'rmon fondi yerlari 11,9 mln. gektarni, ya'ni Respublika umumiy yer maydonining 26,4 foizi (2017 yilda 10,5 mln gektar, 23,4 foiz)ni tashkil qiladi, shundan o'rmonzorlar maydoni 5,3 mln. gektar (11,8 foiz), shu jumladan, o'rmon bilan qoplangan yer maydoni 3,5 mln. gektarni, ya'ni Respublika umumiy yer maydonining 7,7 foizi (2017 yilda 3,1 mln gektar, 6,9 foiz)ni tashkil etadi. Umumiy maydonning 3 468 856 gektari o'rmon bilan qoplangan maydon (shundan, 2 270 465 gektar tabiiy, 1 198 391 gektar madaniy o'rmonzorlar), 1 036 205 gektar tutashmagan yosh o'rmonzorlar, 1349 gektar o'rmon ko'chatxonalari, 640 759 gektar siyrak qoplanmagan o'rmonzorlar, 174 637 gektar taqir yerlar, 22 142 gektar ekin yerlar (shundan, 9 589 gektar lalmi, 12 553 gektar sug'oriladigan), 32 868 gektar pichanzorlar, 2 632 818 gektar yaylovlar, 4 155 gektar bog'lar, 33 527 gektar

ariq-zovurlar, 7 681 gektar yo'llar, 4 890 gektar aholi yashash joylari, 893 gektar botqoqliklar, 90 336 gektar qumliklar, 3 323 gektar muzliklar, 3 703 690 gektar boshqa foydalanilmaydigan yerlardan iborat. O'rmon fondining 81,8 foizi (9 701 418 gektar) cho'l hududi, 13,7 foizi (1 618 578 gektar) tog' hududi, 4,2 foizi (503 147 gektar) to'qay hududi, 0,3 foizi (34 987 gektar) vodiy hududidan iborat. O'rmon xo'jaligi agentligi tizimida 63 ta davlat o'rmon xo'jaliklari va 12 ta dorivorchilikka ixtisoslashgan davlat o'rmon xo'jaliklari va 4 ta o'rmon ishlab chiqarish korxonalari faoliyat yuritadi hamda ularning umumiy yer maydoni 6,6 mln gektarni (umumiy o'rmon 55 foizi) tashkil etadi. Qo'riqxonalar, milliy tabiat bog'lari, o'rmon-ov xo'jaliklari, o'rmon tajriba xo'jaliklari Ekologiya vazirligi tasarrufida bo'lib, ulaning umumiy maydoni 5,3 mln gektardan (umumiy o'rmon fondining 45 foizi) iborat. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-dekabrdagi 993-son qarori bilan tasdiqlangan "Davlat o'rmon fondi uchastkalarini ijaraga berish tartibi to'g'risida"gi Nizom asosida o'rmon fondining 78,8 ming gektar yer maydonlari 7 ming 430 ta yuridik va jismoniy shaxslarga ijaraga berilgan bo'lib, 2023 yilda shartnoma shartlarini bajarmagan, ijara to'lovini to'lamagan va yerdan foydalanmagan yoki samarasiz foydalanayotgan 753 nafar ijarachilardan 30 ming gektar yer maydonlari belgilangan tartibda qaytarib olinishiga erishildi. O'rmon fondi yer maydonlarida o'rmonlarni kengaytirish tadbirlarini amalga oshirish va o'rmon bilan qoplanganlik darajasini oshirish bo'yicha doimiy ravishda monitoring yuritishni yo'lga qo'yish chora-tadbirlarini belgilash maqsadida o'rmon barpo etish, o'rmonlarni ko'paytirish ishlari amalga oshirilmoqda. Shuningdek, o'rmon xo'jaliklari tomonidan doimiy ravishda monitoringi yuritilmoqda.

Jahon banki tomonidan moliyalashtirilayotgan mintaqadagi ekotizimlarni tiklash bo'yicha eng yirik tashabbus – Markaziy Osiyoning barqaror landshaftlarini tiklash dasturi (RESILAND CA+) loyihasi doirasida amalga oshirilayotgan ishlar mintaqada iqlim barqarorligini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Markaziy Osiyo mamlakatlari va O'zbekistonda yerlarning degradatsiyaga uchrashi, o'rmonlar hududining qisqarishi bir qator ekologik muammolarni keltirib chiqaradi. Bu muammo, ayniqsa, iqlim o'zgarishi jarayonida ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan sezilarli zarar yetkazadigan sel va suv toshqinlari sonini ko'paytiradi. Shu sababli, Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasida ekologik va o'rmon xo'jaligi siyosatini uyg'unlashtirish, resurslarni barqaror boshqarish hamda iqtisodiy-ijtimoiy va ekologik ustuvorlikni muvozanatlash uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Xalqaro shartnomalar loyihalari muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda turizm, bioxilma-xillikning inventarizatsiyasini o'tkazish, transchegaraviy ekologik koridorni boshqarish, umumiy tabiiy hududlarda tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini monitoring qilish, o'rmon yong'inlari haqida erta ogohlantirish tizimini yaratish, shuningdek, Qirg'iz Respublikasi, Tojikiston va O'zbekiston chegaralari tutashgan hududlarda "Tinchlik park"larini yaratish bilan bog'liq. "Tinchlik park"lari ekotizimlarni saqlash, ekoturizmni rivojlantirish, tabiiy ofatlar xavfini kamaytirishga

ko'maklashish va chegara hududlari aholisi uchun iqtisodiy imkoniyatlar yaratishga mo'ljallangan.

Hozirgi kunda RESILAND CA+ dasturi Qirg'iz Respublikasi, Tojikiston va O'zbekistonda amalga oshirilmoqda. Ushbu dastur O'zbekistonda 250 ming gektardan ortiq o'rmon va yaylovlarni tiklashda yordam beradi. Ushbu loyiha 6 ta hudud – Namangan, Sirdaryo, Jizzax, Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryoda amalga oshirilmoqda.

Jumladan, landshaftlarni tiklashning 6 ta varianti ishlab chiqildi va ixtisoslashtirilgan pitomniklar tashkil etildi. 10 ming gektardan ziyod yaylov yerlarini terraslash va ihotalash ishlari amalga oshirildi. Zomin milliy tabiat bog'ida ekoturizmni rivojlantirish qo'llab-quvvatlanmoqda. Bu yerda 30 nafar mahalliy aholi vakillari ish bilan ta'minlanadi. Ushbu chora-tadbirlar O'zbekistonning 2018-yilgi Bonn chaqirig'i doirasida belgilangan maqsadga erishishga — 2030 yilgacha degradatsiyaga uchragan 1 million gektar yerlarni qayta tiklashga yordam beradi.

Joriy yilda Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universitetida O'rmon agentligi direktori o'rinbosari G'olibjon Qurbonov Bolgariyaning ekologik loyihalar va karbon bo'yicha yechimlar taklif qiluvchi "Acta Climate" kompaniyasining xalqaro ekspertlari – Veselin Ninov va kompaniya direktori Zvezdomir Penkov bilan uchrashuv o'tkazildi.

O'zbekiston hududida degradatsiyaga uchragan yer maydonlarini tiklash, yangi o'rmonlar barpo etish va hududlarni barqaror rivojlantirish bo'yicha hamkorlik masalalari e'tibor qaratilmoqda.

"Acta Climate" mutaxassislari tomonidan O'zbekistonda afforestatsiya loyihasini amalga oshirish bo'yicha dastlabki baholash va o'rganish ishlari boshlangani ma'lum qilindi. Mazkur loyiha degradatsiyaga uchragan yerlarni tiklash, karbonni uzoq muddatli tarzda singdirish va Verra / VCS xalqaro standarti bo'yicha sertifikatlashni o'z ichiga oladi.

Ekspertlar O'zbekistonning o'rmon xo'jaliklari va mahalliy hududlar kesimida ekologik, klimatik, tuproq va logistik ma'lumotlarni aniqlik bilan taqdim etish muhimligini ta'kidladilar. Ma'lumotlar viloyat yoki tuman darajasida emas, balki aniq o'rmon xo'jaliklari kesimida taqdim etilishi maqsadga muvofiqligi qayd etish mumkin.

O'rmon xo'jaligi sohasidagi islohotlarni yanada kuchaytirish chora-tadbirlari dasturiga muvofiq 2026-yil davomida quyidagi amaliy loyihalar amalga oshirilishi rejalashtirilmoqda:

Daraxt va butalarni sanitariya maqsadida kesish tartibini takomillashtirish. Daraxt va butalarni sanitariya maqsadida kesish uchun ruxsatnomani kollegial ovoz berish tartibida ko'rib chiqib, kesishga ruxsat berishni yo'lga qo'yish;

Toshkent shahar o'rmon xo'jaligini tashkil etish bo'yicha Hukumat qarori loyihasini ishlab chiqish. Bunda:

Toshkent shahar o'rmon xo'jaligining vazifa va asosiy faoliyat yo'nalishlarini

belgilash;

o'rmon xo'jaligining shtat birliklari va moddiy-texnika bazasini tashkil qilishni nazarda tutish.

Toshkent shahrida ekologik barqarorlikni ta'minlash, aholining hayot sifatini oshirish hamda yashil hududlar qamrovini kengaytirish maqsadida "Yashil Toshkent" loyihasini amalga oshirish bo'yicha respublika ishchi guruhi tarkibini tasdiqlash va uning vazifalarini belgilash. Bunda:

ishchi guruh faoliyatini Toshkent shahrida ko'kalamzorlashtirish, himoyaviy va rekreatsiya ahamiyatiga ega yashil hududlar maydonini ko'paytirish, zamonaviy landshaft va shahar ekotizimini rivojlantirish, sug'orish va parvarishlash infratuzilmasini yangilash, energiya tejamkor va raqamli monitoring yechimlarini joriy etish bo'yicha chora-tadbirlarni muvofiqlashtirishga yo'naltirish.

O'rmon xo'jaligi va atrof-muhitni muhofaza qilish, yashil hududlarni kengaytirish va iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish yo'nalishlarini yanada rivojlantirish yuzasidan qator maqsad va vazifalar belgilangan.

4. Tarmoqqa tegishli kasblar ro'yxati

MMK-2025 ga muvofiq tarmoqqa tegishli kasblar ro'yxati quyidagi jadvalda keltiriladi:

T/r	Lavozim va kasblar kodi	Xizmatchilar lavozimlari va ishchilar kasblarining nomi
1	11200029	O'rmon xo'jaligi tashkiloti rahbari
2	13112002	Bosh o'rmon inspektori
3	13112003	O'rmon pitomnigi boshlig'i
4	13112004	O'rmon qurilish partiyasi boshlig'i
5	13112005	O'rmon xo'jaligi boshlig'i
6	13112006	O'rmon xo'jaligi rahbari (boshqaruvchi, boshlig'i)
7	13112007	O'rmon xo'jaligida bo'linma (bo'lim) boshlig'i (mudiri)
8	13112008	O'rmon xo'jaligida bosh geodezist
9	13112009	O'rmon xo'jaligida bosh mexanik
10	13112010	O'rmon xo'jaligida bosh muhandis
11	13112011	O'rmon xo'jaligida laboratoriya boshlig'i (mudiri)
12	13112012	O'rmon xo'jaligida texnik rahbar
13	13112013	O'rmon xo'jaligida xizmat (sho'ba, byuro, sex, stansiya, punkt, uchastka, ombor, otryad) boshlig'i (mudiri)
14	13112014	O'rmon-qurilish ekspeditsiyasi boshlig'i
15	14311033	Qo'riqxonada direktori
16	14311017	Botanika bog'i direktori
17	14311018	Hayvonot bog'i direktori
18	21325001	Bog'dorchilik muhandisi
19	21325002	Daraxtlarni tayyorlash va qayta ishlash bo'yicha muhandis
20	21325003	O'rmon ekinlari muhandisi

21	21325004	O'rmon patologiyasi muhandisi
22	21325005	O'rmon xo'jaligi muhandisi
23	21325007	O'rmonlardan foydalanish bo'yicha muhandis
24	21325008	O'rmonlarni qayta tiklash va barpo etish bo'yicha muhandis
25	21325009	Ov xo'jaligi bo'yicha muhandis
26	21325010	Yer o'lchovchi
27	21325011	Yer resurslari inventarizatori
28	21325012	Yer tuzish bo'yicha muhandis
29	31430001	O'rmon patologiyasi bo'yicha texnik
30	31430002	O'rmon xo'jaligi melioratori (o'rta malakali)
31	31430003	O'rmon xo'jaligi sohasida laborant tadqiqotchi
32	31430004	O'rmon xo'jaligi texnigi
33	31430005	O'rmondan foydalanish bo'yicha texnik
34	31430006	O'rmonlarni ko'paytirish va o'rmon yetishtirish bo'yicha texnik
35	31430007	O'rmonni muhofaza qilish va qo'riqlash bo'yicha texnik
36	31430008	Ovchilik xo'jaligi texnigi
37	31430009	Texnik-taksator
38	62101001	Daraxt kesuvchi
39	61219002	Hayvonlarga veterinariya ishlovi berish bo'yicha operator
40	61219007	Hayvonshunos
41	62109010	O'rmonchi
42	62109011	O'rmon-kimyoviy uskunalari apparatchisi
43	62109009	O'rmon xo'jaligi biolaboranti
44	62109004	Daraxt yelimi yig'ishga tayyorlovchi
45	62109017	Suvdagi yog'och va yog'och tayyorlash ishlab chiqarish nazoratchisi
46	62101002	O'rmon kesuvchi
47	62101004	Shoxlarni kesuvchi
48	62109012	Po'stni shiluvchi
49	62109020	Yog'och oqizuvchi
50	62109003	Birlashtiruvchi
51	62109006	G'ola tayyorlovchi
52	62109021	Yog'och tashuvchi
53	62109015	Sollarni yasovchi
54	51640009	Zoologik baza hayvonshunosi
55	51640007	Qarovsiz hayvonlarni tutuvchi
56	54190015	Eger
57	61290006	Hayvonlarni kuzatib borish bo'yicha kuzatuvchisi
58	61290019	Yirtqich hayvonlarga qarovchi ishchi
59	62109007	O'rmon daraxtlarini tashuvchi
60	62109023	Yog'ochlarni suvdan oluvchi
61	62109019	Yog'och ko'mirni yoquvchi
62	62109022	Yog'ochlarni ag'daruvchi-uyumlovchi
63	62109014	Qo'riqxona ishchisi
64	62101003	Shoxlarni belgilovchi

65	62109005	Daraxt yelimini yig'uvchi
66	62109008	O'rmon materialarini eksportga yuboruvchi
67	62109018	Suvdagi yog'ochlarni saralovchi
68	61290005	Hayvonlarga qarovchi ishchi
69	61290003	Daydi itlar, mushuklar va boshqa hayvonlarni ovlash bo'yicha ishchi
70	92150002	O'rmon nazoratchisi (obyezdchi)
71	92150003	O'rmon xo'jaligidagi malakasiz ishchi
72	92150004	O'tin yoruvchi
73	92150005	Qo'lda arralovchi
74	92150006	Yog'och tashuvchi
75	92150007	Yog'och tayyorlashda malakasiz ishchi

5. Yangi ishlab chiqilishi rejalashtirilgan kasbiy standartlar haqida ma'lumot¹

T/r	Kasbiy standartlar soni	Qamrab olinadigan kasb (lavozim)lar soni	Ishlab chiqiladigan yil va oy
1	3	10	2025-yil, dekabr
2	1	4	2026-yil, dekabr

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-345-son qarori, 6-ilovasidagi 2025-2026-yillarda kasbiy standartlarni ishlab chiqish reja-jadvaliga muvofiq, Ekologiya, o'rmon xo'jaligi, gidrometeorologiya sohalarida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashiga tegishli bo'lgan 10 ta kasbiy standartning qolgan qismi ekologiya va gidrometeorologiya sohalarini qamrab oladi.

6. Tarmoq malaka ramkasi malaka darajalarining tavsifi

Malaka darajasi		Bilim	Ko'nikma (mahorat)	Mas'uliyat va mustaqillik	Kasbiy faoliyat turlari va kasb (lavozim)lar kodi hamda nomi
Milliy malaka ramasi (MMR)	Tarmoq malaka ramasi (TMR)				
1	1	O'rmon xo'jaligi sohasida elementar va boshlang'ich umumiy bilimlar; Daraxt turlari, o'rmon xavfsizligi qoidalari, oddiy parvarish ishlarining asosiy tushunchalari	Belgilangan qoidalarga muvofiq standart va oddiy vazifalarni bajarish; O'rmon tozalashda yordam berish yoki oddiy asboblardan foydalanish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar	O'z harakatlari va ish natijalari uchun javobgarlik; O'zganing bevosita nazorati va kuzatuv ostida ishlash	02.10 O'rmonchilik va boshqa o'rmon xo'jaligi faoliyati: 92150002 O'rmon nazoratchisi (obyektdchi)
2	2	O'rmon xo'jaligi sohasida umumiy amaliy bilimlar; O'rmon ekotizimlari, daraxt ekish va parvarish qilishning asosiy usullari, o'rmon zararkunandalari haqida oddiy ma'lumotlar	Standart vazifalarni oddiy qoidalar va instrumentlar yordamida bajarish va yo'riqnoma bo'yicha harakat qilish; Oddiy ekish yoki kesish ishlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan amaliy va kognitiv ko'nikmalar	O'z harakatlari va ish natijalari uchun javobgarlik; Nazorat ostida standart va oddiy vazifalarni bajarish	91.41 Botanika bog'lari, hayvonot bog'lari va qo'riqxonalar faoliyati: 5414008 Qo'riqchi 54190015 Eger 61290006 Hayvonlarni kuzatib borish bo'yicha kuzatuvchisi 61290019 Yirtqich hayvonlarga qarovchi ishchi 02.10 O'rmonchilik va boshqa o'rmon xo'jaligi faoliyati: 62109007 O'rmon daraxtlarini tashuvchi 62109023 Yog'ochlarni suvdan oluvchi 62109019 Yog'och ko'mirni yoquvchi 62109022 Yog'ochlarni ag'daruvchi-uyumlovchi

					62109014 Qo'riqxonona ishchisi 62101003 Shoxlarni belgilovchi 62109005 Daraxt yelimini yig'uvchi 62109008 O'rmon materiallarini eksportga yuboruvchi 62109018 Suvdagi yog'ochlarni saralovchi
3	3	O'rmon xo'jaligi sohasida umumiy amaliy va kasbiy bilimlar; O'rmon monitoringi usullari, zararkunandalarga qarshi kurash, o'rmon resurslarini boshqarish dasturlari	Belgilangan vazifalarni bajarish va muammolarni hal qilish uchun asosiy usullar, vositalar, materiallar va ma'lumotlarni saralash va foydalanish; Oddiy o'rmon holatini baholash va choralar taklif qilish uchun zarur bo'lgan amaliy va kognitiv ko'nikmalar	O'z harakatlari, ish natijalari va boshqalarning harakatlari uchun javobgarlik; Muammolarni hal qilishda zaruratdan kelib chiqib mustaqil qaror qabul qilish	02.10 O'rmonchilik va boshqa o'rmon xo'jaligi faoliyati: 62109010 O'rmonchi 62109011 O'rmon-kimyo uskunalari apparatchisi 62109009 O'rmon xo'jaligi biolaboranti 62109004 Daraxt yelimi yig'ishga tayyorlovchi 62109017 Suvdagi yog'och va yog'och tayyorlash ishlab chiqarish nazoratchisi 62101002 O'rmon kesuvchi 62101004 Shoxlarni kesuvchi 62109012 Po'stni shiluvchi 62109020 Yog'och oqizuvchi 62109003 Birlashtiruvchi 62109006 G'ola tayyorlovchi 62109021 Yog'och tashuvchi 62109015 Sollarni yasovchi
4	4	O'rmon xo'jaligi sohasida keng qamrovli amaliy va nazariy bilimlar; O'rmon ekologiyasi, barqaror boshqaruv usullari, o'rmon ta'sirini baholash	Mehnat holati va uning oldindan aytish mumkin bo'lgan o'zgarishlarini baholashni talab qiladigan muammolarni hal qilish; O'rmon holatini	O'z harakatlari va ish natijalari uchun javobgarlik; O'rmon xo'jaligi sohasida o'z faoliyatini mustaqil rejalashtirish va tashkil qilish; Individual monitoring ishlarini	91.41 Botanika bog'lari, hayvonot bog'lari va qo'riqxonalar faoliyati: 61219002 Hayvonlarga veterinariya ishlovi berish bo'yicha operator; 61290007 Hayvonshunos; 02.10 O'rmonchilik va boshqa o'rmon xo'jaligi faoliyati: 62101001 Daraxt kesuvchi; Dorivor o'simliklar biolaboranti Dorivor o'simliklar biotexnigi


			baholash va parvarish choralarini rejalashtirish uchun zarur bo'lgan amaliy va kognitiv ko'nikmalar	mustaqil boshqarish	
5	5	O'rmon xo'jaligi sohasida ixtisoslashgan nazariy va amaliy bilimlar; O'rmon reabilitatsiyasi, zararkunandalarni biologik nazorat qilish va barqaror o'rmon resurslari boshqaruvi bo'yicha chuqur ma'lumotlar	Muammolarga ijodiy yechimlarni ishlab chiqish uchun zarur bo'lgan keng qamrovli amaliy va kognitiv ko'nikmalar; Murakkab o'rmon vaziyatlarini hal qilish va saqlash dasturlarini yaratish	Biriktirilgan xodimlar harakatlari va ish natijalari uchun javobgarlik; O'rmon xo'jaligi sohasidagi mehnat jarayonlarini mustaqil boshqarish va nazorat qilish	91.41 Botanika bog'lari, hayvonot bog'lari va qo'riqxonalar faoliyati: Park ekologi; Laborant; Texnik-agrometeorolog; Texnik-geodezist 02.10 O'rmonchilik va boshqa o'rmon xo'jaligi faoliyati: 1311062 O'rmon ustasi; 31430001 O'rmon patologiyasi bo'yicha texnik 31430002 O'rmon xo'jaligi melioratori (o'rta malakali) 31430003 O'rmon xo'jaligi sohasida laborant tadqiqotchi 31430004 O'rmon xo'jaligi texnigi 31430005 O'rmondan foydalanish bo'yicha texnik 31430006 O'rmonlarni ko'paytirish va o'rmon yetishtirish bo'yicha texnik 31430007 O'rmonni muhofaza qilish va qo'riqlash bo'yicha texnik 31430008 Ovchilik xo'jaligi texnigi 31430009 Texnik-taksator
6	6	O'rmon xo'jaligi sohasida keng va integratsiyalashgan bilimlar;	Turli standartlar va tez-tez o'zgarib turadigan talablarni hisobga olgan holda	Oldindan aytib bo'lmaydigan o'rmon xo'jaligi muhitida qarorlar	91.41 Botanika bog'lari, hayvonot bog'lari va qo'riqxonalar faoliyati: 21325001 Bog'dorchilik muhandisi 21325002 Daraxtlarni tayyorlash va qayta ishlash

		Ilmiy asoslar, o'rmon ekologik tizimlari, global monitoring usullari va ularni amaliy qo'llash, shuningdek, eng muhim nazariyalar va modellar	yangi yechimlarni ishlab chiqish, faoliyat, usullar va ularning natijalarini baholash; O'rmon boshqaruvi modellari va xavf-xatarlarni boshqarish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar	qabul qilish va biriktirilgan xodimlarning kasbiy rivojlanishini boshqarish uchun javobgarlik; O'rmon xo'jaligi sohasida qarorlar qabul qilish va mas'uliyatni o'z zimmasiga olish, murakkab texnik va kasbiy faoliyat va loyihalarni boshqarish, biriktirilgan xodimlarning professional rivojlanishiga rahbarlik qilish va jamoadagi muammolarni hal qilish	bo'yicha muhandis 21325003 O'rmon ekinlari muhandisi 21325004 O'rmon patologiyasi muhandisi 21325005 O'rmon xo'jaligi muhandisi 21325007 O'rmonlardan foydalanish bo'yicha muhandis 21325008 O'rmonlarni qayta tiklash va barpo etish bo'yicha muhandis 21325009 Ov xo'jaligi bo'yicha muhandis 21325010 Yer o'lchovchi 21325011 Yer resurslari inventarizatori 21325012 Yer tuzish bo'yicha muhandis 14311017 Botanika bog'i direktori 14311018 Hayvonot bog'i direktori 14311033 Qo'riqxona direktori O'rmon xo'jaligining bosh inspektori Davlat qo'mitasi (o'rmon ho'jaligi) raisi Davlat qo'mitasi (o'rmon ho'jaligi) raisi o'rinbosari Laboratoriya (o'rmon ho'jaligi) mudiri
7	7	O'rmon xo'jaligi sohasida innovatsion yondashuvlar va/yoki ilmiy tadqiqotlarga asoslangan yuqori ixtisoslashgan	Yangi bilim va texnologiyalarni ishlab chiqish va turli sohalaridagi bilimlarni birlashtirish uchun ilmiy tadqiqot va/yoki	Oldindan aytib bo'lmaydigan sharoitlarda qaror qabul qilish, jamoalar strategik faoliyatini ko'rib chiqish uchun javobgarlik;	84.11 Umumiy tushdagi davlat boshqaruvi: 13112002 Bosh o'rmon inspektori 13112003 O'rmon pitomnigi boshlig'i 13112004 O'rmon qurilish partiyasi boshlig'i 13112005 O'rmon xo'jaligi boshlig'i 13112006 O'rmon xo'jaligi rahbari (boshqaruvchi, boshlig'i) 13112007 O'rmon xo'jaligida bo'linma (bo'lim) boshlig'i

		bilimlar, shuningdek, bir soha yoki turli sohalarga oid o'zaro bog'liq bilimlar; O'rmon siyosatini shakllantirish, iqlim o'zgarishiga moslashuv va strategik xavf-xatarlarni baholash	innovatsiyalarda talab qilinadigan muammolarni, shu jumladan, strategik muammolarni hal qilish; Barqaror o'rmon xo'jaligi strategiyalarini ishlab chiqish uchun zarur bo'lgan maxsus kasbiy ko'nikmalar	Yangi strategik yondashuvlarni talab qiladigan murakkab, oldindan aytib bo'lmaydigan o'rmon xo'jaligi faoliyati boshqarish, loyihalash va o'zgartirish	(mudiri) 13112008 O'rmon xo'jaligida bosh geodezist 13112009 O'rmon xo'jaligida bosh mexanik 13112010 O'rmon xo'jaligida bosh muhandis 13112011 O'rmon xo'jaligida laboratoriya boshlig'i (mudiri) 13112012 O'rmon xo'jaligida texnik rahbar 13112013 O'rmon xo'jaligida xizmat (sho'ba, byuro, sex, stansiya, punkt, uchastka, ombor, otryad) boshlig'i (mudiri) 13112014 O'rmon-qurilish ekspeditsiyasi boshlig'i 11200029 O'rmon xo'jaligi tashkiloti rahbari
8	8	Murakkab g'oyalarni tanqidiy tahlil qilish, baholash va sintez qilish uchun zarur bo'lgan ilmiy va kasbiy faoliyat sohasidagi eng ilg'or innovatsion va ixtisoslashgan bilimlar; O'rmon xo'jaligi sohasidagi global tendentsiyalar, iqlim modellarini prognozlash, milliy va xalqaro o'rmon siyosatini	Yangi bilim va yechimlarga olib keladigan loyihalarni tadqiq qilish, ishlab chiqish va amalga oshirish, ilmiy va innovatsion faoliyat natijalarini prognoz qilish, kasbiy va ijtimoiy sohada keng ko'lamli o'zgarishlarni amalga oshirish, murakkab ilmiy jarayonlarni boshqarish, ixtisoslashgan ilmiy tadqiqot,	O'zining va ilmiy jamoaning tadqiqot natijalari, shuningdek, ularning mamlakat va xalqaro miqyosdagi iqtisodiy va ekologik samarasi uchun mas'uliyat; Yirik institutsional tuzilmalar darajasida qarorlar qabul qilish va strategiyani belgilash, murakkab ijtimoiy, iqtisodiy va ilmiy jarayonlarni boshqarish, yangi va murakkab g'oyalarni tanqidiy tahlil qilish,	84.11 Umumiy tusdagi davlat boshqaruvi: 21325006 O'rmon xo'jaligi sohasida ilmiy xodimlar va ilmiy tadqiqotchilar

		rivojlantirish	ishlanmalar va innovatsiyalar sohasidagi yangi muammolarni aniqlash va yechimlarini topish uchun zarur bo'lgan eng ilg'or va maxsus ko'nikmalar; Milliy o'rmon xo'jaligi tizimini rivojlantirish va ekologik barqarorlikni baholash	baholash va sintez qilish, jamiyatning o'rmon va ekologik taraqqiyoti uchun strategik qarorlar qabul qilish	
--	--	----------------	---	---	--

7. Tarmoqning funksional xaritasi



**8. Tarmoq malaka ramkasini ishlab chiqishda ishtirok etgan tashkilot
(korxona)lar to'g'risida ma'lumot**

T/r	Ishlab chiquvchilar to'g'risida ma'lumot	
	Ish joyi va lavozimi	Familiyasi, ismi, otasining ismi
1	O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi boshlig'i	B. Kazakbayeva
2	O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi bosh mutaxassisi	X. Ismoilov
3	O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi Mustaqil maslahatchi	N. Almedov
4	O'rmon xo'jaligi ilmiy-tadqiqot instituti direktor o'rinbosari	U. Ruzmetov
5	O'rmon xo'jaligi texnikumi ta'lim ustasi	F. G'ofurov
6	"Ekomodern" MCHJ direktori	S. Axmedova